

### **2018 yil yanvar-avgust**

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-avgust oylarida 913,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 177,2 mln. AQSh dollarini va import 736,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 559,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,1 foizga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 61,1 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 71,7 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 82,1 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirdorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-avgust oylarida 658,6 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 135,2 mln. AQSh dollarini va import 523,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

#### **Eksport tarkibi, foizda**



#### **Import tarkibi, foizda**





46,6 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 8,5 foizlik natija bilan qayd etildi.


Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagи ijobiy ko'rsatkichi (49,3 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.

## Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 46,6 foizini mashina va asbob-uskunalar, 20,4 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 11,4 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 52,7 foizni va safarlar xizmati 28,3 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni




2018 yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosи –559,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –107,1 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –452,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi  
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**


	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiylajmga nisbatan, %</i>
<b>Eksport</b>	<b>177,2</b>	<b>116,2</b>	<b>100</b>
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	87,3	114,8	49,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	3,8	80,8	2,1
qora va rangli metallar	7,1	161,1	4,0
mashina va asbob-uskunalar	15,0	173,1	8,5
xizmatlar	20,2	113,7	11,4
boshqalar	43,8	113,8	24,7
<b>Import</b>	<b>736,4</b>	<b>135,7</b>	<b>100</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	105,8	154,4	14,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	150,1	103,5	20,4
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	3,6	2,2m	0,5
qora va rangli metallar	55,4	3,0m	7,5
mashina va asbob-uskunalar	342,9	135,6	46,6
xizmatlar	2,4	75,6	0,3
boshqalar	76,2	142,7	10,3

## 2018 yil yanvar-avgust oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,6 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 68,4 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.



## Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 71,7 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 133,1 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida

44,6 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 173,1 foizini tashkil qildi), 24,5 foizini mevalar (98,5 foizini), 24,7 foizini uzum (102,7 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 32,9 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (96,1 foizni) tashkil qildi.

Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 15,7 foiz), Rossiya (17,9 foiz), Vietnam (6,7 foiz), Xitoy (8,8 foiz), Turkiya (9,3 foiz), Belarus(4,8 foiz) va Eron (7,1 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.




### **Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda**



## Tashqi savdo

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 40,5 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



### Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 87,8 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,6 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 14,6 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,8 foizni, sabzavotlar 49,1 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 173,9 foizni), uzum 19,3 ming tonnani (86,2 foizni), yer yong'oq 4,5 ming tonnani (19,4 martani), qovun va tarvuz **373,5** tonnani (169,3 foizni) tashkil qildi.